



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 22-may, № 103 (9274)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YXHT BILAN KO'P QIRRALI HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-may kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Feridun Sinirlio'g'luni qabul qildi.



Uchrashuvda YXHT bilan iqtisodiy-ekologik, siyosiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ochiq va konstruktiv muloqot yuksak darajaga chiqqani, O'zbekistonning YXHT va uning tizimidagi institutlar bilan hamkorligi izchil mustahkamlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tashkilot rahbariyati O'zbekistonga tashriflarni muntazam amalga oshirmoqda, YXHT DIHB missiyalari mamlakatimizda saylov jarayonlarini monitoring qilishda faol ishtirok etmoqda.

Transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish, sud-huquq tizimini isloh qilish, gender tenglikni ilgari surish, inson huquqlarini himoya qilish va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish sohalarida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalarining natijalari alohida qayd etildi.

Tomonlar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda "yashil" kun tartibini ilgari surish kabi ustuvor yo'nalishlarda ham hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligini ta'kidladilar.

Hamkorlik bo'yicha yangi "Yo'l xaritasi"ni tayyorlab, O'zbekistonda va YXHT doirasida bir qator qo'shma tadbirlarni o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Mintaqaviy va xalqaro kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTONLIK HAJ ZIYORATCHILARIGA BARCHA SHAROIT YARATILGAN

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat muborak Qurbon hayiti arafasida, yurtdoshlarimiz Haj amallarini ado etayotgan qutlug' kunlarda bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari muftiy hazratlari orqali muqaddas Makka shahrida bo'lib turgan barcha hojilarimizni Qurbon hayiti bilan samimiy tabriklab, ularning elu yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, yoshlarimizning baxtu saodati yo'lida qilayotgan ezgu duo va iltijolari qabul bo'lishini tiladi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda har yili 15 ming nafardan ziyod vatandoshimiz muborak Haj safariga bormoqda. Bu yil yana bir xayrli tashabbus amalga oshirilib, Vatan va xalq manfaati yo'lida sidqidildan xizmat qilgan mehnat faxriylari, ularning oila a'zolari, mahalla faollari, nuroniylar hamda kam ta'minlangan oilalar vakillaridan iborat 100 nafar yurtdoshimiz ilk bor davlat hisobidan Haj safariga yuborildi.

Prezidentimiz ziyoratchilarimizning salomatligi va kayfiyati haqida so'radi, ibodatlarini bajarishi uchun tashkiliy ishlarning borishi bilan qiziqdi.

Muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar Makka va Madina shaharlarida ziyoratchilarimiz uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani, tashkiliy ishlar uyushqoqlik bilan o'tayotganini ta'kidladi. Bundan qalbida shukronalik hissi jo'shgan yurtdoshlarimiz muqaddas joylarda turib, Yaratgandan mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini so'rab duolar qilayotganini qayd etdi.

Suhbatda mamlakatimizda

diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz qalbi, ma'naviyati va ma'rifatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aytilib o'tildi. Imom Buxoriy majmuasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasi kabi yaqinda foydalanishga topshirilgan maskanlar ulug' ajdodlarimizning bebaho merosini keng targ'ib etishga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Kuni kecha Qurbon hayitini yurtimizda o'zgacha fayz va shukuh bilan nishonlash bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Muborak ayyomni nishonlash bilan bog'liq xayru saxovat va muruvvat tadbirlari ham amalga oshiriladi. Jumladan, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, 10 mingdan ortiq bolalarda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish, 2 mingga yaqin og'ir kasallikka chalingan yurtdoshlarimizni davolash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratiladi. Masjid va qabristonlarni obod qilishga ham alohida resurslar yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari hayotda ko'pni ko'rgan, duogo'y hojilarimiz yurtga qaytgach, islom ma'rifati va sog'lom e'tiqodni xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga teran yetkazishda, mahallalarda mehr-oqibat, hamjihatlik va ma'naviy muhitni mustahkamlashda namuna bo'lishlariga ishonch bildirdi.

Suhbat yakunida Prezidentimiz barcha hojilarimizga salom yo'llab, ularning savobli amallari qabul bo'lishini, yurtimizga sog'-omon qaytishlarini tiladi.

O'ZA.

MEHR-OQIBAT, SAXOVAT VA HAMJIHATLIKNI YANADA MUSTAHKAMLOVCHI TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qurbon hayiti munosabati bilan ehtiyojmand aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, aholini ijtimoiy himoya qilish, jamiyatda mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyillar, ayniqsa, xalqimizga xos ezgu fazilatlarini mujassam etgan muborak Qurbon hayiti kunlarida yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Taqdimotda O'zbekiston musulmonlari idorasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda "Vaqf" xayriya jamoat fondi tomonidan ishlab chiqilgan takliflar haqida axborot berildi.

Ularga ko'ra, Qurbon hayiti munosabati bilan keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Jumladan, og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming nafar bolada jarrohlik amaliyoti o'tkazish, 2,3 ming nafar onkologik, gematologik va onkogematologik tashxisi qo'yilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, davolash va jarrohlik amaliyotlari, shuningdek, kamida 350 nafar bemorda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotlarini o'tkazish xarajatlari qoplash ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor

qaratiladi. 8 ming nafardan ziyod yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan ota-onalar farzandlarining omonat hisobvaraqlariga 200 dollar miqdorida pul mablag'lari o'tkazib beriladi.

Bundan tashqari, 500 ta masjidda aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida zamonaviy tahoratxonalar qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash, shuningdek, joylardagi qabristonlarni obod qilish ishlari amalga oshiriladi.

Davlat ta'minotidagi oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va

nogironligi bo'lgan shaxslar oziq-ovqat to'plamlari bilan ta'minlanadi.

Mazkur chora-tadbirlar "Vaqf" xayriya jamoat fondiga ajratiladigan 690 milliard so'm mablag' hisobidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun ehson dasturxonlari yozish, ziyoratgohlar va diniy ta'lim tashkilotlarida qurbonlik tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash, bemorlarni davolash va bolalarga ko'mak ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlar shaffof hamda manzilli tashkil etilishi zarurligini ta'kidladi va mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

MAMLAKATIMIZDAGI DEMOKRATIK YANGILANISHLAR E'TIROF ETILDI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) bosh kotibi Feridun Sinirlio'g'lu bilan uchrashdi.

Muloqot

Muloqotda O'zbekistonda Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlat institutlarini mustahkamlash, yaxshi qo'shnichilik siyosatini izchil rivojlantirish hamda Markaziy Osiyoda barqaror va o'zaro ishonchga asoslangan muhitni shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston va YXHT o'rtasidagi hamkorlikning bugungi kundagi holati hamda uning amaliy yo'nalishlari yuqori baholandi. YXHT tomonidan mamlakatimizdagi demokratik yangilanishlar va ochiq mintaqaviy siyosat qo'llab-quvvatlanayotgani e'tirof etildi.

Shuningdek, Oliy Majlisning YXHT bilan hamkorlik bo'yicha parlament guruhi faoliyatiga alohida urg'u berildi. Mazkur format barqaror parlamentlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda mazkur nufuzli tashkilot bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning muhim mexanizmi sifatida baholandi.

Suhbat chog'ida tomonlar parlament tuzilmalari, ekspert platformalari va qo'shma tadbirlar orqali munosabatlarni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga

MILLAT TAQDIRINI O'ZGARTIRGAN SIYOSAT

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng o'tgan davrda dunyoda qanchadan-qancha murakkab siyosiy jarayonlar va iqtisodiy nobarqarorliklar yuz berdi. Shunga qaramasdan mamlakatimizda yaratuvchanlik kayfiyati so'ngani yo'q, keng ko'lamli islohotlar samarali davom etishiga tobora ishonch ortib boryapti. Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz barqaror o'sishda davom etib, tashqi aloqalar kengaymoqda. Xorijiy investitsiyalar oqimi va eksport hajmi sezilarli darajada ortganiga guvoh bo'lib turibmiz. Bu yutuqlar Prezidentimiz rahbarligidagi oqilona siyosatning amaliy natijasi bo'lib, O'zbekistonning kelajakka ishonchli qadam tashlayotganining yaqqol dalilidir.

Bu borada milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlantirish darajasiga ko'tarilishida byudjet va soliq siyosatining ahamiyati qanday bo'lgani, bu borada yaqin o'tmishimizda jarayonlar qanday kechganini xolisona tahlil qilishimiz foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki byudjet va soliq siyosati islohotlar markazida turibdi.

Sabab emas, oqibat bilan...

Mustaqillikning dastlabki davrida Davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashda hukumat eski sho'rocha byudjet paradigmasidan xalos bo'lishi oson kechmadi. Ushbu nuqsonli meros, ya'ni markazlashgan rejalashtirishdan qolgan "subsidiyabozlik" illati iqtisodiyotni sun'iy ravishda byudjet mablag'lariga qaram qilib qo'ygan edi. Ishlab chiqarish va taqsimot tizimining izdan chiqqani soliq bazasini yemirishda davom etdi. Ma'muriy belgilangan narxlarning saqlanib qolishi esa byudjet daromadlarining

bozor konyunkturasiga mos ravishda shakllanishiga yo'l bermadi. Bank tizimi orqali taqdim etilgan samarasiz imtiyozli kreditlar va subvensiyalar moliyaviy sog'lomlashtirish o'rniga, aksincha, byudjet kamomadini yanada chuqurlashtirdi. Bundan tashqari, qat'iy belgilangan ish haqi tizimining amal qilishi mehnat unumdorligini rag'batlantirmas edi. Ustiga-ustak, soliq nazoratidan tashqaridagi yashirin iqtisodiyotning kurtaklay boshlashi byudjetni muhim daromad manbalaridan mahrum qila boshladi.



Ushbu muammolarni hal etish katta mashaqqat va vaqt talab qilardi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga qaramay rubl zonasining bir qismi bo'lib qolganligi sababli, byudjet taqchilligining inflyatsion ta'sirini kamaytirish orqali narx barqarorligiga

qaratilgan mustaqil pul-kredit siyosatini olib borish imkoniyati cheklangan edi. Bu esa qanday bo'lmasin, mustaqil pul-kredit siyosatini hayotga tatbiq qilish uchun institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etdi.

Senat qoʻmitasida

AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARINING ISHONCHLI HIMOYASI



Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalarni jinsiy zoʻravonlik hamda axloqqa zid tajovuzlardan asrashga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy erkinlik hamda axloqqa qarshi jinoyatlar bilan bogʻliq ishlarni sudga qadar yuritish va bu jinoyatlarda aybdor deb topilgan mahkumlamning jazoni oʻtashi bilan bogʻliq ayrim muammolar mavjud.

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi majlisida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish choralarini kuchaytirishga, shuningdek, baʼzi jinoyatlar tergovining sifatini oshirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan mazkur qonun bilan Jinoyat-protsessual va Jinoyat-ijroiya kodekslariga, “Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunga tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksida jinsiy erkinlik va axloqqa qarshi ayrim jinoyatlar, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar hamda odam oʻlimiga sabab boʻlgan mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bogʻliq jinoyatlar

boʻyicha dastlabki tergov ishlarini ichki ishlar organlaridan prokuratura organlariga oʻtkazish nazarda tutilmoqda. Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilayotgan oʻzgartirishlarga koʻra esa, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan ayrim shaxslarni manzil-koloniyalarga oʻtkazishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Shuningdek, “Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunda prokuratura organlari bolalarga nisbatan jinsiy

zoʻravonlik sodir etilgani faktlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni tekshirishi, ular yuzasidan dastlabki tergovni olib borishi hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning jazoni ijro etishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, ichki ishlar organlari esa bolalarga nisbatan zoʻravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlangan jazoning ijro etilishini amalga oshirishi belgilanmoqda.

Senatlar ushbu qonun xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni kuchaytirishga, ularga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish samaradorligini oshirishga hamda bu boradagi ogʻir jinoyatlar boʻyicha tergov sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishini taʼkidladi.

Majlis yakunida qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Barqaror shaharlar sari:

Yangi Oʻzbekistonning urbanizatsiya strategiyasi

Bugungi kunda jahonda urbanizatsiya jarayonlari jadal surʼatlarda kechmoqda va u insoniyat taraqqiyotining eng muhim tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. BMT tahlillariga koʻra, XXI asr oʻrtalariga borib dunyo aholisining qariyb 70 foizi shaharlarda istiqomat qilishi kutilyapti. Bu esa shaharlar rivoji masalasiga faqat qirilish yoki aholi joylashuvi muammosi sifatida emas, balki global iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida qarashni taqozo etayotir.



Munosabat

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Boku shahrida BMTning Aholi punktlari boʻyicha dasturi – BMT-Habitat shafeligida oʻtkazilgan Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi muhim xalqaro muloqot maydoni boʻldi. “Barcha uchun uy-joy: xavfsiz va barqaror shaharlar hamda hamjamiyatlar” mavzuida tashkil etilgan mazkur forumda davlat va hukumat rahbarlari, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar hamda ekspertlar qatnashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mazkur forumdagi ishtiroki va ilgari surgan tashabbuslari Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli urbanizatsiya siyosati xalqaro hamjamiyatning eʼtibor markazida ekanini yana bir bor namoyon qildi. Ayniqsa, shaharlarni barqaror rivojlantirish, aholini arzon va sifatli uy-joy bilan taʼminlash, ekologik muvozanatni saqlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish boʻyicha bildirilgan takliflar dolzarbligi bilan ajralib turdi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, urbanizatsiya jarayonlari global barqarorlik va xavfsizlikka bevosita taʼsir qiluvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bois mazkur jarayonlarni rejali, ilmiy asoslangan va inson manfaatlariga yoʻnaltirilgan tarzda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi Oʻzbekiston uchun ham shaharlarni barqaror rivojlantirish strategik ahamiyatga ega vazifalardan hisoblanadi. Yaqin oʻn besh yil ichida mamlakatimiz aholisi 38 milliondan 50 million nafarga, urbanizatsiya darajasi esa 51 foizdan 65 foizgacha oshishi kutilmoqda. Bu jarayonni davlatimiz xavf yoki bosim sifatida emas, aksincha, iqtisodiy oʻsish va hududlarni uygʻun rivojlantirish uchun katta imkoniyat sifatida baholamoqda.

Shu maqsadda mamlakatimizda uy-joy qurilishi boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Soʻnggi oʻn yilda qurilayotgan uy-joylar soni oʻn barobar ortib, 2025-yilda 238 mingta xonadonga yetgani, 2030-yilga borib ushbu koʻrsatkich yana 1,5 barobar oshirilishi rejalashtirilgani shaharsozlik siyosatidagi keng qamrovli yondashuvni koʻrsatadi. Aholini arzon uy-joy bilan taʼminlash dasturlariga har yili qariyb 2 milliard dollar mablagʻ yoʻnaltirilayotgani ham ushbu sohaga qaratilayotgan eʼtiborning amaliy ifodasidir.

Shuningdek, mamlakatimizda norasmiy uy-joylar muammosini hal etish maqsadida alohida qonun qabul qilinib, qariyb 100 ming uy-joyga huquqiy hujjat rasmiylashtirib berildi. Renovatsiya dasturlari orqali eski uy-joylarni yangilash ishlari ham jadal davom etmoqda.

Yangi Oʻzbekistonning urbanizatsiya siyosatida Yangi Toshkent megaloyihasi alohida ahamiyatga ega. Ikki million aholiga moʻljallangan mazkur shahar konsepsiyasida “yashil”, “aqlli”, “xavfsiz” va “15 daqiqali shahar” tamoyillari mujassamlashgan. Birinchi bosqichning oʻzida 25 milliard dollardan ortiq investitsiya loyihalarining boshlangani ushbu tashabbusning strategik ahamiyatini koʻrsatadi.

Forum doirasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan xalqaro tashabbuslar ham alohida eʼtiborga molik. Xususan, “mutanosib urbanizatsiya” tamoyilini keng joriy qilish, “Aqlli va xavfsiz shaharlar alyansi”ni tashkil etish, “Yashil shahar” xalqaro mukofotini taʼsis qilish va Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasini 2030-yilda Yangi Toshkent shahrida oʻtkazish haqidagi takliflar xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, “mutanosib urbanizatsiya” tamoyilini

keng joriy qilish taklifi hududlar oʻrtasidagi rivojlanish tafovutlarini qisqartirish, aholining yirik shaharlarga ortiqcha oqimini kamaytirish hamda kichik va oʻrta shaharlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilsa, “Aqlli va xavfsiz shaharlar alyansi”ning tashkil etilishi shahar boshqaruvida raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish, davlatlar oʻrtasida ilgʻor tajriba almashish va zamonaviy shaharsozlik standartlarini shakllantirish uchun muhim xalqaro platformani yuvjudga keltiradi.

Ayniqsa, 2030-yilda Butunjahon urbanizatsiya forumining 15-sessiyasi Yangi Toshkent shahrida oʻtkazilishi nafaqat mamlakatimizning xalqaro nufuzini yuksaltirish, balki Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan zamonaviy shaharsozlik tajribasini jahon hamjamiyatiga namoyish qilish, investitsiyalar va yangi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Boku forumi Yangi Oʻzbekistonning shaharsozlik va urbanizatsiya siyosati xalqaro standartlar va zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlanayotganini yana bir bor namoyon etdi. Eng muhimi, mamlakatimizda inson manfaati, yashash sifati va ekologik barqarorlikni ustuvor deb bilgan holda shakllanayotgan urbanizatsiya modeli kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor vazifasini oʻtamoqda. Bu esa shaharlarni shunchaki qurish emas, balki inson uchun qulay, xavfsiz va barqaror hayot muhitiga ega holda barpo etishga qaratilgan yangi taraqqiyot strategiyasidir.

Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni masalalari qoʻmitasi raisi.

Uchrashuv

SIFAT VA SAMARADORLIK – BOSH MEZON

Oliy Majlis Senatining Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi raisi Odiljon Mamatkarimov Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda vazirlikning masʼul xodimlari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Suhbat davomida mamlakatimizda ilm-fan, taʼlim va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy faoliyatni qoʻllab-quvvatlash hamda sohadagi mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, taʼlim sifati va samaradorligini oshirish, yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan integratsiya qilish, innovatsion gʻoya hamda loyihalarini qoʻllab-quvvatlash yuzasidan bajarilayotgan ishlar xususida fikr almashildi.

Qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazorati doirasidagi oʻrganishlarni samarali tashkil etish, hududlardagi taʼlim va ilmiy muassasalar faoliyatini yanada rivojlantirish borasida oʻzaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega ekanini taʼkidlandi.

Uchrashuv yakunida kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olinib, sohada hayotga tatbiq qilinayotgan islohotlarni izchil davom ettirish yuzasidan hamkorlikni mustahkamlashga kelishib olindi.

TALABALAR QIZIQISHLARI HAMISHA EʼTIBORDA

Payshanba – “Yoshlar kuni” munosabati bilan Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi aʼzolari – Erkin Gadoyev hamda Kobul Tursunov Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universitetining talabalari bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Ochiq muloqot tarzida oʻtgan uchrashuv davomida senatorlar yoshlarning kelajakdagi rejalari, sohadagi tashabbuslarini tinglab, ularni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda imkoniyatlarni muhokama qildi. Senat aʼzolari mamlakat taraqqiyoti uchun har tomonlama yetuk, bilimli, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar zarurligini alohida taʼkidladi.

Suhbat chogʻida Vatanimiz istiqbolli mahalliy va xalqaro maydonda raqobatbardosh, faol hamda ilmi kadrlar qoʻlida ekanini eʼtirof etildi. Senatorlar yigit-qizlarni katta hayotga mustahkam ishonch hamda qatʼiyat bilan qadam tashlash, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, mustaqil hayot yoʻlida yuksak marralarni zabt etishga chorladi.

Muloqot davomida senatorlar

davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida soʻnggi yillarda qator muhim vazifalar belgilangani hamda ularning ijrosi tizimli ravishda taʼminlanayotganini qayd etdi. Shuningdek, yigit-qizlarning har bir taklif va gʻoyasini tinglashga tayyor ekanliklarini, Senat eshiklari ular uchun doimo ochiqligini bildirib, talabalarni muhtazam izlanish va bilim olishdan toʻxtamaslikka chaqirdi.

Tadbir doirasida yoshlar tomonidan bildirilgan savol va takliflar diqqat bilan tinglanib, ularni hal etish yuzasidan tegishli mutasaddirlarga vazifalar yuklatildi.

“Xalq soʻzi”.

Parlament nazorati

PIYODALAR XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASH YUZASIDAN SENATOR SOʻROVI YUBORILDI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi raisi Qutbiddin Burhonov poytaxtning Bektemir tumanida aholini tashviushga solayotgan muammolar yuzasidan Toshkent shahar hokimiga senator soʻrovi yubordi.

Senat ishchi guruhining tumanda oʻtkazgan oʻrganishlari va fuqarolar bilan uchrashuvlari davomida qator dolzarb masalalar aniqlangan. Xususan, Bektemir tumanidagi Nurafshon mahallasida maktabgacha taʼlim tashkiloti va umumtaʼlim maktabi mavjud emasligi sababli mahallada istiqomat qiluvchi oʻquvchilar qoʻshni Mirobod tumanidagi taʼlim muassasalariga qatnamoqda.

Oʻquvchilar maktabga borish uchun serqatnov Toshkent halqa avtomobil yoʻlini kesib oʻtishga majbur boʻlmoqda. Hudduda yer osti yoki yer usti piyodalar oʻtish yoʻlagi mavjud emasligi esa bolalar va fuqarolar hayoti uchun jiddiy xavf tugʻdiradi.

Oʻrganishlar davomida Nurafshon mahallasi Porloq koʻchasini Mirobod tumani Qoʻyliq ota koʻchasi bilan bogʻlovchi yer osti piyodalar oʻtish yoʻlagini qurish boʻyicha Toshkent shahar hokimligi tomonidan tegishli ishlar olib borilayotgani maʼlum boʻldi.

Shu munosabat bilan senator soʻrovida mazkur loyiha 2026-yil dasturiga kiritilgan-kiritilmagani, uni amalga oshirish uchun zarur mablagʻ ajratilgani, mablagʻ ajratilmagan boʻlsa, muammoni hal etish boʻyicha qanday choralar koʻrilayotgani haqida maʼlumot taqdim etish soʻralgan.

Shuningdek, yer osti piyodalar oʻtish yoʻlagi foydalanishga topshirilgunga qadar fuqarolar xavfsizligini taʼminlash maqsadida vaqtinchalik piyodalar oʻtish joyi tashkil etish, svetofo rʻoʻrnatish yoki yoʻl-patrol xizmati xodimlarining doimiy nazoratini yoʻlga qoʻyish boʻyicha koʻriladigan choralar yuzasidan ham batafsil axborot berish soʻralgan.

“Xalq soʻzi”.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi tomonidan Toshkent viloyati texnikumlarida dual taʼlim tizimini joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazildi.

Tadbirda deputatlar, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy taʼlim agentligi hamda ularning hududiy boshqarmalari vakillari, Toshkent viloyati hokimligi mutasaddilari, ekspert olimlar, jamoatchilik kengashi aʼzolari, Parlament tadqiqotlari instituti xodimlari, Yoshlar parlamenti aʼzolari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda kasbiy taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish, texnikumlar faoliyatini zamonaviy talabalar asosida tashkil qilish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Sohaning huquqiy asoslari mintazam takomillashtirib borilmoqda. Xususan, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻrganishlar davomida Toshkent viloyatining Oʻrta Chirchiq, Boʻka, Oqqoʻrgʻon, Qibray tumanlari hamda Chirchiq shahridagi texnikumlar faoliyati tahlil qilindi. Mazkur taʼlim muassasalarida minglab

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

TEXNIKUMLARDA DUAL TAʼLIM TIZIMI RIVOJI VA NATIJADORLIK

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi tomonidan Toshkent viloyati texnikumlarida dual taʼlim tizimini joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazildi.

Oʻquvchilar 40 dan ortiq kasb va mutaxassislik yoʻnalishlarida tahsil olayotgani maʼlum boʻldi. Xususan, sanoat, qishloq xoʻjaligi, xizmat koʻrsatish, axborot texnologiyalari, avtomobilsozlik, veterinariya hamda maktabgacha taʼlim yoʻnalishlarida dual taʼlim tizimi keng joriy etilmoqda.

Deputatlarning taʼkidlashicha, bugungi kunda oʻrganilgan texnikumlarda 700 nafardan ortiq oʻquvchilar dual taʼlim asosida tahsil oʻlyapti. Ular yirik sanoat korxonalari, kashterlar, servis tashkilotlari va xususiy sektor subyektlarida amaliy koʻnikmalarni egallamoqda.

Shuningdek, korxonalar bilan oʻnlab hamkorlik shartnomalari imzolangan boʻlib, oʻquv reja va dasturlari ish beruvchilar ishtirokida shakllantirilgan. Ayrim texnikumlarda oʻquvchilarga ish haqi toʻlash amaliyotining yoʻlga qoʻyilgani dual taʼlim samaradorligini yanada oshiryapti.

Tahlillar natijasiga koʻra, bitiruvchilarning bandlik

darajasi oʻrtacha 88 foizni tashkil etayotir. Ayrim texnikumlarda esa oʻquvchilarning salmoqli qismi oliy taʼlim muassasalariga suhbat asosida qabul qilinmoqda.

Yigʻilishda xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga ham alohida eʼtibor qaratilayotgani eʼtirof etildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning “PEARSON” kompaniyasi, “KOICA” agentligi, Estoniya payvandchilar milliy assotsiatsiyasi hamda xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik munosabatlari yoʻlga qoʻyilgani qayd etildi.

Muhokamarlar davomida sohada erishilgan natijalar bilan bir qatorda baʼzi muammo va kamchiliklar ham tilga olindi. Xususan, ayrim texnikumlarda zamonaviy laboratoriya va ustaxonalar, avtomobil va elektromobillar servisi uchun jihozlar hamda trenajyorlar yetishmasligi taʼlim sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgani taʼkidlandi. Shu bilan birga, ayrim ustaxonalarning moslashtirilgan xonalarda joylashgani, dual taʼlim guruhlari uchun alohida ishlab chiqarish taʼlimi ustalari shartlari ajratilmagan pedagoglarga ortiqcha tashvish keltirmoqda.

Madina BARATOVA,
qoʻmita aʼzosi:

Tadbirda dual taʼlim tizimini joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni atroflicha tahlil qildi. Muhokamarlar chogʻida texnikumlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagoglarni ishlab chiqarish korxonalarida amaliy stajirovkalarga jalb qilish, dual taʼlim ishtirokchilarini moddiy ragʻbatlantirish hamda texnikumlarni sohaviy yoʻnalishlariga mos oliy taʼlim muassasalariga qayta birlashtirish boʻyicha qator takliflarni ilgari surdi. Shuningdek, kasbiy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozoriga integratsiya qilish va ularning bandligini taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish yuzasidan tegishli takliflar bildirildi.

Yakunda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ijrosini mintazam monitoring qilib borish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha zarur choralarni koʻrish vazifalari belgilab olindi.



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MASALALARI MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi tomonidan Kadastr agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni hamda sohada korrupsiya omillarini bartaraf etish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlarni Qashqadaryo va Fargʻona viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida oʻrganish yakunlariga bagʻishlangan eshituv oʻtkazildi.

Unda davlat xizmatlari sohasida ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash, aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar samaradorligi tahlil qilindi.

Qayd etilganidek, joriy yilning aprel oyida Qonunchilik palatasi ishchi guruhi tomonidan Qashqadaryo va Fargʻona

shaklga oʻtkazilgani sohada shaffoflikni oshirishga xizmat qilayotgani taʼkidlandi.

Shu bilan birga, Ishchi guruhning joylardagi oʻrganishlari natijasida tizimda ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgani qayd etildi.

Bundan tashqari, tizim xodimlari tomonidan fuqarolar va tadbirkorlar tomonidan kiritilgan arizalarni koʻrib chiqish jarayonida asossiz rad etish va muddatlarni buzish holatlari ham kuzatilmoqda. Maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilda davlat xizmatlari koʻrsatish sohasida 32 544 ta qonunbuzilish holati qayd etilgan.

Eshituvda, shuningdek, Kadastr agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi

kurashish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar murojaatlari, davlat xizmatlari orqali kelib tushayotgan murojaatlar tahlili, asossiz rad etish holatlari hamda hududlarda xonadonma-xonadon oʻtkazilayotgan xatlov ishlarining natijadorligi atroflicha koʻrib chiqildi.

Zuhriddin MAVLONOV,
qoʻmita aʼzosi:

Oʻrganishlarimizdan kelib chiqib, davlat xizmatlarini koʻrsatishda byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish, raqamlashtirishni yanada kengaytirish hamda kadastr va notariat tizimlari oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali korrupsion omillarni qisqartirish

zarurligiga oid takliflarimizni bildiridik. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qonun ustuvorligini taʼminlash, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilishi borasida tavsiyalarimizni berdik.

Yigʻilishda koʻrilgan masala yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.



MILLAT TAQDIRINI O'ZGARTIRGAN SIYOSAT



Bunday vaziyatda hukumat ayrim narxlar ustidan bevosita nazoratni amalga oshirishga, shu bilan birga, islohotlarning huquqiy va institutsional asoslarini yaratishga harakat qildi. Lekin bu sa'y-harakatlar bozor mexanizmlari orqali talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlashni ta'minlashdan ko'ra, ko'proq bunday muvozanat buzilishining oqibatlari bilan kurashishga qaratilgan edi, desak, ayni haqiqat. Yuzaga kelgan ushbu vaziyatni tez o'zgartirish soliq, byudjet va pul-kredit siyosatida keskin (radikal) choralar ko'rishni talab etardi. Lekin "yetti o'lchab, bir kesguncha" jarayon ancha ildamlab ketar va butunlay boshqacha holat yuzaga kelib qolaverardi. Bunday vaziyatda "sababni" bartaraf etishga qaratilgan tezkor qarorlar qabul qilishdan ko'ra, "oqibat" bilan kurashishdan boshqa yechim yo'qdek ko'rinadi go'yo.



Rubl zonasida uzoq qolishimiz sababli 1992 va 1993-yillardagi inflyatsiya yuzaga keltirgan byudjet kamomadini Markaziy bank kreditlari hisobiga moliyalashtira boshladik. O'sha davrlarda moliya tizimida rasmiy tan olinmagan bo'lsa-da, kvazimoliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishi ham inflyatsiyaga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Byudjetda to'liq aks etmaydigan, ammo qayta taqsimlash funksiyasini bajaradigan mexanizmlar – subsidiyalar, markazlashgan kreditlar, bir nechta valyuta kurslari, imtiyozli foiz stavkalari mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va oqibatda inflyatsion bosimning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Ushbu inersion jarayonlar O'zbekiston fiskal siyosatida uzoq vaqt davom etib keldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish e'lon qilinganiga chorak asrdan oshgan bo'lsa-da, Davlat byudjeti o'z mohiyatiga ko'ra, hali ham markazlashgan taqsimot mexanizmi bo'lib qolaverdi. Rasmiy statistikada xususiy sektor ulushi ortib borayotgandek ko'rinsa-da, amalda byudjet mablag'lari va soliq imtiyozlarining asosiy qismi davlat ulushi yuqori bo'lgan yirik korxonalarni "real sektor" niqobi ostida qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bunday yopiq fiskal muhitda byudjet daromadlarining xomashyo eksportiga qaramligi saqlanib qoldi, soliq tizimi esa sog'lom raqobatni rag'batlantirish o'rniga ichki bozorga yo'naltirilgan tor doraidagi manfaatlariga xizmat qildi. Byudjet xarajatlarning inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy transformatsiyaga yo'naltirilgan qismi samarasiz bo'lib qolgan sababli davlat moliyaviy dastaklar orqali yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlash imkoniyatini boy berdi. Oqibatda byudjet siyosati ichki mehnat bozorini himoya qila olmadi va aholining eng faol qismi tirikchilik ilinjida chetga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Byudjet tizimida shaffoflikning yo'qligi va nazorat mexanizmining zaifligi eng katta og'riqli nuqtalar bo'lgani bor haqiqat. O'sha davrda davlat xarajatlarning sezilarli qismi rasmiy byudjetdan tashqarida turli jamg'armalar va tarqoq hisob raqamlar orqali amalga oshirilgan. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2016-yilning o'zida byudjet hisobotlarida aks etmagan xarajatlar hajmi YAIMning taxminan 3 foizini tashkil qilgan. Tizimning tarqoqligini quyidagi raqamlardan ham bilish mumkin: byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar soni 40 dan ortiq, byudjetdan tashqari ochilgan hisob raqamlar esa 20 – 30 mingtagacha yetgan. Bunday tarzda moliyaviy oqimlarning "loyqalanishi" davlat mablag'larining qayerga va qanday sarflanayotganini nazorat qilish imkonini yo'qqa chiqargadi.

Byudjet xarajatlari ustidan samarali monitoring tizimining zaifligi byudjet mablag'larining natijasi sarflanishiga yo'l ochdi. Xarajatlarning asosiy qismi davlat nazoratidagi sanoat tarmoqlari va yirik infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan bir paytda kelajak poydevori hisoblangan ilm-fan va ijtimoiy sohalariga ajratilayotgan mablag'lar keskin cheklanganini qanday izohlash mumkin?

Mamlakatda fiskal muvozanat saqlanayotganini ko'rsatish maqsadida byudjet kamomadi (defitsiti) sun'iy ravishda past darajada ushlab turilgan ham ayni haqiqat. Hatto ayrim yillarda byudjet profititi (daromadning xarajatdan ko'pligi) bilan yopilgani haqida hisobot berilgan. Biroq bunday "muvaqqatlyat" barcha iqtisodiy o'sish hisobidan emas, balki yil oxirida rejalashtirilgan xarajatlarni keskin qisqartirish yoki ularni moliyaviy yil yakunigacha amalga oshirmaslik (to'xtatib turish) evaziga erishilgan.

O'sha davrda keng miqyosda berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalar byudjet barqarorligiga jiddiy zarba bo'ldi, desak, o'rinni. Eng qiziqi, bu imtiyozlarning samaradorligi, ularning yangi ish o'rinlari yaratishga yoki investitsiya oqimiga ta'siri deyarli o'rganilmadi.

Soliq qoidalar va stavkalarining tez-tez o'zgarishi xususiy sektor uchun muammo keltirib chiqargan edi. Yuqori rasmiy soliq stavkalari bilan bir qatorda norasmiy majburiy to'lovlar va yig'inlarning mavjudligi tadbirkorlarni "ikki o't orasida" qoldirgan ma'lum. Bunday og'ir "rasmiy va norasmiy" soliq yuki ostida qolgan ko'plab tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini to'xtatishga yoki yashirin iqtisodiyotga o'tib ketishga majbur bo'lgan.

"Qora oqqush" hodisasi (*kutilmagan, oldindan aytib bo'lmaydigan va jamiyat yoki iqtisodiyot uchun haddan tashqari katta ta'sirga ega bo'lgan hodisalar*) yuz berishi mumkin edi. Lekin O'zbekistonni iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshi berk ko'chaga kiritib qo'yg'an omillarni bartaraf etish maqsadida 2017-yilda boshlangan islohotlar buning oldini oldi. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotimizdagi "muzliklar"ni eritish, iqtisodiyotning qon tomlarini "tromblar"dan tozalashga qaratilgan ilk qadamlar aynan fiskal va monetar sohadagi yuzaga kelgan tizimli muammolarning yechimidan boshlandi. Chuqur tahlillar asosida ushbu sohalarida yangi, zamonaviy boshqaruv modeliga o'tish zarurati to'g'ri anglab olindi.



Yuqorida bayon qilingan holat zudlik bilan soliq-byudjet siyosatida jiddiy islohotlarni amalga oshirishni talab etardi. Shu maqsadda 2019-yilda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga ko'ra soliqlar soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi, yer (mulk) solig'i stavkasi 5 foizdan 1 foizgacha tushirildi, QQS 20 foizdan dastlab 15 foiz, keyinchalik 12 foizga pasaytirildi. Bu tadbirkorlar ixtiyorida yiliga o'rtacha 10 – 12 trillion so'm mablag' qolishiga zamin yaratdi. Kichik biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning yagona 4 foizli stavkasi joriy etildi. Ish haqiga daromad solig'ining yuki esa qariyb 2 barobar kamaytirildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotni jonlantirish, iqtisodiy o'sishga "turk" berish maqsadida davlat qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirdi. Mana shu qo'shimcha xarajatlarning bir qismini ichki mablag'larimiz yetari emasligi sababli davlat qarzi hisobiga amalga oshirishga majbur bo'lganini ham bilishimiz kerak.

Bunday keskin o'zgarishlarni amalga oshirish juda katta siyosiy iroda talab etardi. Chunki soliq stavkalarining keskin pasaytirilishi etarga davlat g'aznasining bo'shab qolishiga olib kelmaydini, degan xavotirlar kuchli bo'lgan. Xalqimizda "chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi", degan maqol bor. Shu qabilda ish ko'rilganida hozir ahvolimiz ne kechishini tasavvur qilish og'ir masala. Raqamlarda hamma narsa chiroyli ko'ringani bilan iqtisodiyotning "dardi ichida" edi-da.

Mana shunday bir pallada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilgan bunday tadbirlar, xususan, soliq yukini keskin qisqartirish mamlakatda ayanchli holatga kelib qolgan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiyotni erkinlashtirish borasidagi dastlabki qadamlar edi. Aynan mana shu va boshqa tizimli choralar ko'rinishi bizni "Qora oqqush" ssenariysidan qutqarib qoldi.

Amalg oshirilgan soliq islohoti, soliqdarni soddalashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, ish haqiga soliqdarni kamaytirish va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) normasini emas, bazasini kengaytirishga yo'naltirilgan islohotlar o'z samarasini bera boshladi. Natijada tadbirkorlarning ishonchi va faolligi oshib, soliq tushumlari o'sishi kuzatildi. Byudjetga tushgan soliq daromadlari to'rt barobar ko'payib, QQS to'lovchilari soni esa 6 mingdan 152 mingtaga yetdi.

2017-yildan boshlab byudjet jarayonlarida oshkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor berildi. Davlat xarajatlari xalqqa soddalashtirish tushuntiradigan "Fuqarolar uchun byudjet" portali joriy qilindi. Byudjet parametrlari o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlar bilan birgalikda ochiq e'lon qilina boshlandi. An'anaviy tartibda Prezident qarori bilan tasdiqlanib kelinayotgan Davlat byudjeti 2020-yildan boshlab Oliy Majlis palatalari tomonidan qonun sifatida qabul qilinishi amaliyoti yo'lg'a qo'yildi. Bu esa fuqarolarning hukumatga ishonchini oshiribgina qolmay,

ularni byudjet jarayoniga jalb etish va ijrosini nazorat qilishda faol bo'lish imkonini ham berdi.

Byudjetdan tashqari mablag'lar aylanishi va xarajatlari amalga oshirilishiga chek qo'yish maqsadida byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibiga kiritildi. Ayni paytda hukumatning "Ochiq byudjet" portalida byudjetning asosiy parametrlari, daromad va xarajatlar tarkibini ochiq shaklda kuzatib borish mumkin. Ushbu portalda endi aholiga o'z tashabbusini kiritish va mahalliy byudjet loyihalariga ovoz berish imkoniyatini beruvchi funksiyalar kiritildi. Bunda fuqarolar o'z mahallasi

moratoriylar o'rnatildi. Samarasiz soliq imtiyozlari xatlovdan o'tkazilib, individual imtiyozlarga chek qo'yildi. Bu esa yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirib, halol biznes uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Shu o'rinda 2024-yildan boshlab "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" joriy etilgani boshqaruv tizimidagi sifat o'zgarishining muhim indikatori bo'lganini aytilish zarur. Endilikda yuqori reytingga ega, o'z faoliyatini halol va shaffof yuritayotgan tadbirkorlar nafaqat tekshiruvlardan ozod qilinmoqda, balki ularga soliqdarni qaytarish va imtiyozlar berish jarayonlari inson omilisiz, to'liq avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda. Bu "sog'lom raqobat muhiti"ni shakllantirish va tizimda korrupsion xavflarni minimalashtirish yo'lidagi eng jasoratli qadamlardan biridir.

Qisqacha aytganda, mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida xalqning "gardani"ga og'ir yuk bo'lib tushadigan vositalardan tiyilgan holda, oqilona fiskal siyosat olib borilgan, byudjet ochiqqligining ta'minlanishi, ijtimoiy va investitsiya xarajatlarning maqsadli ishlatilishi hamda samaradorligiga jiddiy e'tibor qaratilishi natijasida iqtisodiyot barqaror o'sish darajasiga ko'tarildi, tadbirkorlik muhiti yaxshilandi va eng asosiy aholining real turmush darajasi oshdi.

Davlat xazinas ustidan nazorat

Iqtisodiy islohotlarning yangi to'liqlinida soliq va byudjet tizimini shunchaki o'zgartirish kifoya qilmasdi. Uning mustahkam nazorati tizimini yo'lga qo'yish davr talabiga aylandi.

Agar iqtisodiyotni tirik organizm, deb ataydigan bo'lsak, Davlat byudjeti – bu xalqning mashaqqatli mehnati evaziga yig'ilgan mablag', ya'ni tizimning "o'zagidir". Xo'sh, bu pullarning qayerga va qanday sarflanishini kim nazorat qiladi? Muammo ham aynan shunda edi. Ilgari byudjet ustidan nazorat ko'proq qog'o'zda va yuqori idoralarning yopiq eshiklari ortida qolib ketardi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya iqtisodiy boshqaruv tizimiga mutlaqo yangi va qat'iy qoidani olib kirdi. Konstitutsiyaning 94-moddasiga binoan, Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish endilikda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati etib belgilandi. Bu shuni anglatadiki, xalq saydagan deputatlar endi shunchaki qonun ijrokorlari emas, balki xalq xazinasining haqiqiy posbonlaridir.

Bugun parlamentning quyi palatasida muhit butunlay o'zgargan. Ilgari yil yakunida bir marta ko'rib chiqiladigan umumiy hisobotlar o'rinni har choraklik yig'in bahs-munozaralar egalladi. Deputatlar Davlat byudjeti daromadlari prognozi qanday bajarilayotgani haqida har uch oyda vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotini eshitib bormoqda. Agar biror sohada byudjetga tushum kamaysa yoki mablag' kam sarflansa, "shunday bo'lib qoldi" degan bahonalar o'tmaydi. Mutasaddilar buning sabablarini ochiq tushuntirishga majbur. Deputatlar va ekspertlar iqtisodiyotga foyda keltirmayotgan, aksincha, sog'lom raqobatni bo'g'ayotgan samarasiz bo'xona va soliq imtiyozlari qisqartirish masalasini qat'iy qo'yomoqda.

Endilikda byudjet ijrosi shunchaki quruq raqamlar emas, balki ijtimoiy va infratuzilma dasturlarining, maktab, shifoxona hamda yo'llar qurilishining real holati bilan birgalikda, siyosiy partiyalar fraksiyalarda dastlabki tarzda, sinchiklab ko'rib chiqilmoqda. Eng muhimi, davlatdan ajratilayotgan milliardlab subsidiyalarni kinga va nimaga ketyapti, degan savolga iqtisodiyot va moliya vazirligidan aniq javoblar olinishi shart qilib qo'yildi.


Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar fiskal sohada yangi davrni – korrupsiya illatiga mutlaqo murosasizlik davrini boshlab berdi. Bu shunchaki balandparvoz gap emas. Byudjet va iqtisodiy masalalar ko'mitasi o'z ishini kabinetlardan vazirlik va idoralarga, mahalliy Kengashlarga, mahallalarda, pastga tushib o'rganishi tizimiga transformatsiya qildi. Prezidentimiz "Qaysi rahbar raqamlashtirishni kechiktirsa, ochiqchilik siyosatimizga qarshi chiqqan bo'ladi", deb masalani qat'iy qo'yishi o'z samarasini beraypti, korrupsiyaning manbai – inson omilini cheklashga yo'l ochilmogda. Qayerda mansabdor shaxsning subyektiv qarori bo'lsa, o'sha yerda baribir "tirqish" paydo bo'ladi. Shu bois eng ko'p mablag' oluvchi sohalar – Maktabgacha va maktab ta'limi, Suv xo'jaligi hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarida davlat xaridlari va manfaatlar to'qnashuvi tizimli tahlil qilinmoqda. Xuddi shunday nazorat-tahlil ishlari Soliq, Kadastr va Davlat aktivlari agentliklarida ham olib borildi.

Sharofiddin NAZAROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar ko'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Bugun – Xalqaro biologik xilmaxillik kuni

HAYOT ZANJIRINING AJRALMAS BO'LAGI

Yer yuzidagi har bir g'iyoh, har bir qush, hayvon yoki suv manbai hayot zanjirining ajralmas bo'lagidir. Shu bois ham dunyo hamjamiyati biologik xilmaxillikni asrash masalasiga alohida e'tibor qaratib keladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi asosida "22-may – Xalqaro biologik xilmaxillik kuni" sifatida belgilanishi zamirida ham ana shu ezuq maqsad mujassam. Zero, mazkur sana nafaqat tabiat ne'matlarining qadriini anglash, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni yana bir bor his etishga undaydi.



O'zbekiston ham bu xayrli tashabbusdan chetda emas. Mamlakatimizda bioxilmaxillikni saqlash barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida e'tirof etilgan. Bugun yurtimizda noyob hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish, qo'riqxonalar faoliyatini kengaytirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda.

Kelajak avlodlar hayotining kafolati

Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik saqlangan joydagina hayot bardavom bo'ladi. Shu jihatdan biologik xilmaxillik – Yer kurrasida mavjud bo'lgan barcha hayot shakllarining betakror va beqiyos majmuasidir. U tirik organizmlar, ularning genetik farqlari, yashash muhiti hamda tabiatda kechadigan hayotiy jarayonlarning rang-barangligini o'zida mujassam etishi bilan muhim ahamiyatga ega.

O'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar turlarining bu qadar boyligi milliardlab yillar davom etgan tabiiy evolyutsiya, iqlim o'zgarishlari va turli antropogen omillar ta'sirida shakllangan. Bioxilmaxillik insoniyat uchun ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va kelajak avlodlar hayotining muhim kafolati sifatida ham alohida o'rinni tutadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda biologik xilmaxillik 27 mingdan ortiq turlarni o'z ichiga oladi, – deydi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi bo'lim boshlig'i O'lmas Sobirov. – Shundan 16 ming tur hayvonot dunyosiga mansub. Shuningdek, mamlakatimizda 11 ming xil o'simlik, zamburug' va suv o'tlari uchraydi. 4 385 tur yuksak yovvoyi o'simliklarning qariyb 8 foizi endemikdir.

Yovvoyi hayvonlar turlari va ularning yashash muhitini o'rganish ishlari Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hamda Fanlar akademiyasi tomonidan muntazam olib borilmoqda. Natijada bugungi kunga qadar yovvoyi hayvonlarning 107 turi yangi yashash hududlariga ko'chirildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga hamda "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash" to'g'risidagi Konvensiyasi (CMS) ning II ilovasiga kiritilgan yo'qolib ketish xavfi ostidagi yo'rg'a tuvaloq turini asrash bo'yicha maxsus dastur izchil amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq, har yili pitomniklarda parvarish qilingan qushlar tabiiy yashash muhitiga qo'yib yuborilmoqda. 2011 – 2026-yillar davomida mamlakatimiz cho'l hududlariga 80 ming boshdan ortiq yo'rg'a tuvaloqlar chiqarildi.

Noyob o'simliklar olami

So'nggi yillarda yovvoyi holda o'suvchi dorivor va noyob o'simliklarni muhofaza qilish hamda ularni madaniy holda yetishtirishga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Xususan, 2019 – 2025-yillar davomida 115 ta yuridik va jismoniy shaxs tomonidan 27 823 gektardan ziyod maydonlarda maxsus plantatsiyalar tashkil etildi. Ularda qizilmiya, sassiq kavrak, tojik kavragi, tikanakli kovul va dorivor na'matak kabi o'simliklar parvarish qilinmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 18-noyabrdagi "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tekzor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida 2026-yildan "Bio meros" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi sayg'oq (Saiga tatarica) populyatsiyasini qayta tiklash bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar ko'rilyapti. Bu kabi tashabbuslar Markaziy Osiyoda noyob hayvonot va o'simlik dunyosini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

Mamlakatimizda biologik xilmaxillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta'minlash borasidagi ishlar yil sayin kengayib bormoqda. Bu jarayonda nafaqat milliy, balki global ekologik muammolarga ham alohida e'tibor qaratilyotir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bioxilmaxillikni saqlash bo'yicha qator ustuvor maqsadlar belgilab qo'yilgani ham bu yo'nalishdagi ishlar ko'lami tobora kengayib borishdan dalolat beradi.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").

2026-yil 1-iyuldan Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazmdagi savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha nazorat-kassa texnikasi orqali berilgan cheklar asosida yutuqli o'yinlar o'tkaziladi.

ZAKOVAT VA TAFAKKUR MAYDONIDAGI SOG'LOM RAQOBAT

“TasIMO” – 2026” finalida Yangi O‘zbekistonning ta’lim natijalari yaqqol namoyon bo‘lmoqda

Joriy yilning 19 – 21-may kunlari Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi “Green Hills Resort” tog'-kurort majmuasida nufuzli xalqaro intellektual tadbir – Toshkent xalqaro matematika olimpiadasining final bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi. Bu yilgi musobaqani nafaqat iqtidorli o'quvchilar bellashuvi, balki Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning amaliy ifodasi sifatida ham alohida e'tirof etish joiz.

Mazkur nufuzli xalqaro olimpiadaning mazmun-mohiyati, ahamiyati, maqsadlari hamda tafsilotlari haqida soha mutaxassislari, ekspertlar, tadbir tashkilotchilari, musobaqa ishtirokchilari, keng jamoatchilik vakillari o'z fikr-mulohazalarini bayon qilishdi.

Asrimizning eng katta boyligi

Sherzod MUSTAFOQULOV,
Xalqaro Nordik universiteti rektori,
professor:



– Har bir davlatning ertangi kuni uning bugun qanday maktab qurayotgani, ta'lim poydevorini qay darajada mustahkam shakllantirayotganiga bog'liq. Bugungi globallashuv va texnologik inqilob davrida bu fikr geosiyosiy haqiqat.

Asrimizning eng katta boyligi – bilimli avlod. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big data), kvant texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot davrida, ayniqsa, matematik tafakkur muhim resursga aylandi. Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – OYCED va YUNESKO hisobotlarida ham bugungi iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida aynan sifati ta'lim va intellektual kapital qayd etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyalarida ham ta'lim sohasidagi islohotlarimiz natijalari jahon hamjamiyatida katta e'tibor hamda qiziqish uyg'otayotir.

Shu nuqtai nazaridan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari mamlakat tarixidagi eng muhim burilishlardan biri bo'lmoqda. Prezidentimiz ta'бири bilan aytgandak, kelajak zamonaviy bilim bilan qurollangan kasb-hunar egalarini. Biz bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim. Shu bois yoshlarimizni davr bilan hamnafas bo'lib, har qanday raqobatga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassislar etib tarbiyalashimiz kerak.

Bu fikrlar bugun davlat siyosatining amaliy mazmunida aks etyapti. Chunki mamlakat taraqqiyotining poydevori aynan maktab, ustoz va iqtidorli yoshlar bilan bog'liq ekanini hayotning o'zi isbotlayotir.

Ana shunday tarixiy jarayonlarda “TasIMO” – Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi yirik fan olimpiadasi sifatida Yangi O'zbekistonning intellektual islohotlarini ifoda etayotgan muhim platformaga aylanmoqda.

Bugun dunyo nima uchun matematikani tanlamogda? Avvallari matematika katta faqat akademik fan sifatida qaralgan bo'lsa, bugun u davlatlarning texnologik mustaqilligi va iqtisodiy xavfsizligini belgilovchi omilga aylandi. AQSHning Silikon vodiysi, Xitoyning texnologik “sakrashi”, Janubiy Koreyaning innovatsion iqtisodiyoti yoki Finlyandiyaning ta'lim modeli ortida aynan kuchli matematik va analitik tafakkur turibdi. Bugun sun'iy intellektni yaratadigan dasturchi ham, raketa uchiradigan muhandis ham, moliyaviy tizimni boshqaradigan iqtisodchi ham, matematik tafakkur, eng ogalaridir.

Italiyalik qomusiy olim, riyoziyotchi-faylasuf Galileo Galilei bejir: “Tabiat kitobi matematika tilida yozilgan”, demagan. Haqiqatan ham, matematika bugun insoniyat taraqqiyotining universal tiliga aylandi. Dunyoning rivojlangan davlatlari maktab yoshidan boshlab iqtidorli bolalarni aniqlash va ularni maxsus dasturlar asosida qo'llab-quvvatlashga katta mablag' sarflamoqda. O'zbekiston ham ayni shu yo'lidan bormoqda.

Xalqaro raqobatga tayyor avlod

Ta'limdagi kompetensiyalar davri va mehnat bozori insondan bilim bilan birga tahilliy fikrlash, kreativ yondashuv, tekzor qaror qabul qilish, muammoni hal etish, jamoada ishlash, emotsional intellekt kabi kompetensiyalarni talab qilmoqda.

“TasIMO” olimpiadasi aynan shu zamonaviy yondashuvni o'zida mujassam etayotgani bilan ahamiyatli. Bu xalqaro olimpiada yoshlarni faqat formulalarni yodlashga emas, keng fikrlashga o'rgatmoqda.

Bugungi davrning eng katta muammosi ma'lumot yetishmasligi emas, balki to'g'ri fikrlay oladigan insonlar tanqisligidir. Bugun zamonaviy ta'lim tizimi ham aynan fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga intilmoqda. “TasIMO” esa ana shu ehtiyojga javob berayotgan intellektual maydondir.

Xalqaro Nordik universiteti va IDC (Intelligence Development Center) ta'lim markazi tashabbusi bilan tashkil etilgan



ushbu loyiha bugun xalqaro ta'lim tajribalari almashinuvi hamda muloqot uchun muhim vositaga aylanmoqda. Loyiha BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, STEM-ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va inson kapitalini kuchaytirish siyosati bilan uyg'un tarzda rivojlanayotir.

Bu yilgi final bosqichida AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston, Pokiston, Bolgariya kabi 12 ta davlatdan yuzlab yoshlarning qatnashgani ham “TasIMO”ning xalqaro maydondagi

buyuk tafakkur eng oddiy maktab partasidan boshlanadi. “TasIMO” ana shu iste'dodlarni topayotgan platformadir.

Albatta, kuchli ustozsiz katta natija bo'lmaydi. Buyuk donishmandlardan birining quyidagi hikmatli so'zlari bor: “Agar bir yilni o'ylasang – bug'doy ek, natijasini kuzda olasan. O'n yillikni ko'zlasang – bog' yarat, u senga bir necha yil ichida meva beradi. Ammo agar sen kelajak haqida chin dildan qayg'ursang – farzandlarga to'g'ri tarbiya ber”. Bu so'zlarda chuqur ma'no yotibdi.

“TasIMO – 2026” olimpiadasida 3 – 11-sinf ishtirokchilari o'rtasidagi bellashuvlarda yuqori natija ko'rsatgan yosh iqtidor egalari munosib e'tirof etilib, jami 12 ta oltin, 15 ta kumush hamda 18 ta bronza medal g'oliblarga tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, dunyoning turli davlatlaridan kelib, munosib qatnashgan iqtidorli yosh matematiklardan 75 nafariga “Honorable Mentio” sertifikatlari topshirildi.

nufuzi oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu O'zbekistonning ta'lim sohasidagi ochiqchiligi, akademik integratsiyasi va xalqaro hamkorlik aloqalari ko'lamining amaliy ifodasidir.

Olimpiada doirasida yangi avlod raqamli platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilmoqda. “TasIMO 2.0” – Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi to'liq boshqarish uchun mo'ljallangan zamonaviy raqamli platforma bo'lib, jahon olimpiadalari tajribasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu platforma olimpiadaning barcha bosqichlarini to'liq avtomatlashtirilgan holda boshqarish imkonini beradi. “TasIMO” boshqaruv paneli 30 dan ziyod sahifa va 7 ta asosiy bo'limdan iborat bo'lib, real vaqtda umumiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish, ishtirokchilar boshqaruvi, marketing tizimi, olimpiada boshqaruvi, kontentlar boshqaruvi, moliyaviy boshqaruv hamda geografik baza bilan ishlash imkoniyatlariga ega. Platforma uch til – o'zbek, rus va ingliz tilida faoliyat yuritadi, bu esa mahalliy hamda xalqaro ishtirokchilarning undan qulay foydalanishini ta'minlaydi.

“TasIMO” platformasi bugun ulkan qamrovga ega. 2024-yilda 145 mingdan ortiq yoshlar ro'yxatdan o'tgan va ulardan 75 ming nafardan ziyodi faol qatnashgan. 34 davlatdan xalqaro qatnashchilar ishtirok etish istagini bildirgan. 2025-2026-yillarda esa platforma qamrovi 500 mingdan oshdi.

Bu raqamlar shuni ko'rsatmoqda, O'zbekistonda o'quvchilar o'rtasida ilimga chanqoqlik ortmoqda. Jamiatimizda “bilim orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin”, degan ishonch kuchaydi. O'zbekistonga fan olimpiadalari bois xorijiy yoshlar tashrifi ko'paydi. Bular esa ta'lim islohotlarining eng muhim natijalaridir. Chunki inson kapitaliga asoslangan davlatlarda ijtimoiy lift vazifasini aynan ta'lim bajaradi. Bugun oddiy oiladan chiqqan bola matematik bilim orqali xalqaro maydonga chiqishi mumkin. Demak, tizim ishlamaypti.

Eng katta yutuq – hududiy tenglik

“TasIMO” olimpiadasining muhim jihatlardan biri – imkoniyatlar markazlashtirilmayotgani. Ya'ni bugun olish qishloqdagi bola ham Toshkentdagi tengdoshi bilan bir xil savollarni yechmoqda, bir xil platformada baholanyapti va bir xil xalqaro imkoniyatlarga ega. Bu esa ijtimoiy adolatlarning eng muhim ko'rinishidir. Zero, iste'dod geografiyani tanlamaydi. Ba'zan

Bugungi islohotlarning markazida ham aynan ustoz turibdi. “TasIMO” doirasida 10 mingdan ortiq matematika va fizika o'qituvchilarining jarayonlarga jalb etilgani bejiz emas. Ayniqsa, g'olib ustozlar uchun Finlyandiya va Shvetsiyada malaka oshirish imkoniyatlari yaratilayotgani ta'lim tizimiga ilg'or xalqaro tajriba kirib kelayotganini anglatadi.

Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifati, avvalo, ustoz maqomi va tayyorgarligiga bog'liq. Shuning uchun bugungi Yangi O'zbekiston siyosatida “ustoz qadri” masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodchilar bugun bir narsani aniq aytmoqda: kelajakda tabiiy resurslari ko'p davlatlar emas, bilimli aholisi ko'p davlatlar rivojlanadi. Nobel mukofoti sovrindori Gari Bekker inson kapitali nazariyasida aynan ta'limni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida baholagan. “TasIMO” kabi platformalar esa ana shu inson kapitalini shakllantirayotgan muhim mexanizmlardan.

Bu olimpiada yoshlarni global raqobatga tayyorlaydi, ilm-fanga qiziqishini oshiradi, iqtidorlarni erta aniqlaydi, xalqaro standartlarni joriy qiladi, innovatsion tafakkurni shakllantiradi. Eng muhimi, yoshlarni katta orzu qilishga o'rgatadi.

Intellektual diplomatiyaning yangi markazi

Hozirgi dunyoda davlatlar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ta'lim va madaniyat orqali ham raqobatlashmoqda. Oksford, Garvard, MIT yoki Kembrij kabi oliy o'quv yurtlari nega davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega? Chunki ular mamlakatning “yumshoq kuch”ini shakllantiradi. “TasIMO” ham kelajakda O'zbekistonning ana shunday intellektual brendlaridan biriga aylanishi mumkin.

Bugun turli davlatlardan kelgan yoshlarning Toshkentda birgalikda masala yechayotgani – ertangi ilmiy va texnologik hamkorlikning poydevori. Bu esa O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradigan muhim omildir. Olimpiadada o'tirgan yoshlar orasida kelajak olimlari, sun'iy intellekt mutaxassislari, muhandislar, iqtisodchilar, innovatorlar borligi, shubhasiz. Ularning bugungi mehnati – ertangi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori hisoblanadi.

Olimpiada – bilimlar sinovi

Ozod ZOIROV,
IDC (Intelligence Development Center) ta'lim markazi asoschisi:

– So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni aniq fanlarga keng jalb etish, olimpiadalar harakatini rivojlantirish va xalqaro ta'lim integratsiyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. “TasIMO” ana shunday ezuq maqsadlarning amaliy natijasi sifatida yoshlar iqtidorini yuzaga chiqaraypti.

Bo'stonliqda o'tkazilgan nufuzli xalqaro intellektual bahs, ya'ni Toshkent xalqaro matematika olimpiadasining final bosqichi ham ana shunga xizmat qilayotgan tadbirlardan biridir. Final musobaqasida iqtidorli o'quvchilar bellashib, bilimlarini yanada charxladi, qaysidir ma'noda, tajriba almashish va sinov maydoni bo'lib ham xizmat qildi.

Yakuniy bosqichda yurtimizning 14 ta ma'muriy hududidan 2-bosqichli bellashuvda yuqori natijalarni qayd etgan 134 nafar yosh matematik hamda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston, Pokiston, Bolgariya va boshqa 12 ta xorijiy davlatdan saralangan 202 nafar o'quvchi jamlandi.

Olimpiada Xalqaro Nordik universiteti, IDC ta'lim markazi tashkilotchiligidagi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, YUNISEF, AQSHning Rowan University hamda Finlyandiyaning Karelia University kabi e'tiborli tashkilot va muassasalar hamkorligida tashkil etilgani tadbirning nufuzini yanada oshirdi. Qolaversa, olimpiadaning yuqori saviyada o'tkazilishi hamda OAV orqali keng yoritilishida Bosh homiy – ATB “Asia Alliance Bank”, axborot hamkorlarimiz – “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarini tahririyati va “UzReport TV” axborot agentligining ko'magi katta bo'ldi.

19-may kuni olimpiadaning rasmiy ochilish marosimi o'tkazilib, bellashuvlarga start berildi. Shundan so'ng o'quvchilar sinflar kesimida auditoriyalardagi o'z joylarni egallab, olimpiada jarayonlari boshlandi. 3 – 9-sinf o'quvchilari uchun 90 daqiqalik, 10-11-sinflar uchun esa 4,5 soatlik murakkab matematik bellashuvlar uyushtirildi.

Ishirokchilar uchun olimpiadadan keyin misollar tahlili, apellyatsiya jarayonlari, intellektual muloqotlar hamda turli interaktiv faoliyatlar ham tashkil etildi, bu ishtirokchilarga tahilliy fikrlash, o'z ustida ishlash va xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatini berdi.

“TasIMO” III mavsumi dasturi juda keng qamrovli ekani bilan alohida ahamiyat

kasb etadi. O'quvchilar uchun sport musobaqalari, “Zakovat” intellektual o'yinlari, konsert dasturlari, sayrlar, varrak uchirish, arqon tortish kabi jamoaviy tadbirlar ham katta uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Ayniqsa, “Kalmar o'yinlari” formatidagi bellashuvlar, “Pizza Party” va tabiat qo'ynidagi interfaol mashg'ulotlar yoshlarda liderlik hamda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zero, bugungi zamonaviy olimpiadalarda faqatgina natija muhim emas, balki ishtirokchilarning emotsional intellekti, ijtimoiy moslashuvi va dunyoqarashini ham shakllantirishi kerak. “TasIMO”ni aynan shunday yondashuvni amalga oshirayotgan samarali loyihalardan biri sifatida baholash mumkin. Mutaxassislarning e'tirof etishicha, “TasIMO” xalqaro intellektual maydoni O'zbekistonning global ta'lim reytinglaridagi o'rini mustahkamlash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va mamlakatning “inson kapitali” salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Iste'dod va mehnat mahsuli

Javohir SINDOROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi:

– Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi, haqiqiy ma'noda, iqtidorlarni aniqlab beradigan bellashuv maydoni. Shu ma'noda, men masofadan turib bo'lsa-da, olimpiada jarayonlarini hayajon bilan kuzatib bordim.

Aslida, “TasIMO” final bosqichiga yetib kelishning o'zi katta yutuq, katta mehnat va kuchli irodaning natijasidir. Chunki haqiqiy g'alaba doimo ko'rinmaydigan mehnat ortidan keladi. Har bir g'alaba ortida uyqusiz tunlar, soatlab davom etgan mashg'ulotlar, og'ir musobaqalar, minglab tahlillar hamda yillar davomidagi mashaqqatli mehnat yotadi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardim, barcha yutuqlarga ustozlarim, yaqinlarim ko'magi bilan bir qatorda matematik tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali erishganman, desam, muvofiq bo'lmaydi. Chunki shaxmat ham, matematika ham insonni fikrlashga o'rgatadi. Ular vaziyatni tahlil etish, sabr bilan to'g'ri qaror qabul qilish, har bir qadam oqibatini oldindan ko'ra bilishni o'rgatadi.

Men doim bir haqiqatga ishonganman – iste'dod muhim, lekin mehnat undan-da kuchliroq. Agar inson o'z oldiga katta maqsad qo'ysa va unga chin dildan intilsa, albatta, natijaga erishadi. Bugungi g'olib hamda sovrindorlar, umuman, ishtirokchilar orasidan ham dunyo tan oladigan olimlar, matematiklar, dasturchilar, muhandislar va Vatanimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda baland ko'taradigan yurt iftixorlari yetishib chiqadi.

Sovrin menga ishtiyoq berdi

Biloliddin SHAHOIDDINOV,
Jizzax shahridagi 30-maktabning 3-sinf o'quvchisi, “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarini tahririyati maxsus mukofoti sohibi:

– 5 yoshimdan matematika faniga qiziqib, uni ishtiyoq bilan o'rganib kelayman. Bu olimpiadada katta qiziqish bilan qatnashdim. Maktabimizda ham ushbu fanga jiddiy e'tibor berishadi, o'qituvchilarimiz biz bilimagan matematika sir-sinoatini o'rgatib keladi.

Bugungacha turli tanlov va olimpiadalarda qatnashib, sovrindor bo'lganman. Matematika olimpiadasidagi ishtirokim hakamlar

Orzularim qanot qoqdi

Qodirbek TO'LAGANOV,
Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi “Alpha school” xususiy maktabining 4-sinf o'quvchisi, olimpiada g'olibi:

– Matematikani juda yaxshi ko'raman. Ustozlarim Muzaffar Normatov va Jasurbek Bahromovdan muntazam bilim olib kelayman. Avval “IMAS” olimpiadasida qatnashib, kumush medal olgandim. Maktab hamda tuman bosqichlaridagi tanlovlarda ham g'olib bo'lganman. Kelajakda aniq fanlarni yanada chuqur o'rganib, yurtimiz nomini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilishni istayman.

“TasIMO – 2026” olimpiadasida ilk bor qatnashishim va bu men uchun unutilmas muvaffaqiyat ma'doni g'alabasi aylandi. Barcha qatori o'z bilim va iqtidorimni namoyon etishga harakat qildim va 4-siniflar o'rtasidagi final bosqichi ishtirokchilari o'rtasida 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Juda baxtiyorman va bundan buyon ilm olishdan hech qachon to'xtamayman!



Ham bellashuv, ham sayohat

Martina KRASIMIROVA,
Bolgariyaning Sofiya shahridagi matematika litseyi 9-sinf o'quvchisi, oltin medal sohibi:

– O'zbekiston menga juda yoqadi. Bu xalqaro olimpiadaga uchinchi marta kelishim va bundan juda xursandman. Negaki bellashuvda ishtirok etish orqali ham o'z bilimimni yanada rivojlantiraman, ham sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'laman.

Bu galgi bellashuvlarda o'z bilim hamda ko'nikmalarimni sinab ko'rdim. Tan olishim kerak, test masalalari tobora qiyinlashib bormoqda, bu puxta tayyorgarlik ko'rgan o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi deb o'ylayman.

Taqdirlash marosimida 1-o'rin sohibi, deb e'lon qilib, meni sahnaga taklif etganida

judayam hayajonga tushdim! Ochig'i, buni kutmagandim. Keyin tushundimki, yaxshiroq natija ko'rsatish uchun faqat harakat qilish kerak ekan.

Yana bir narsani aytmoqchiman, bellashuvlarning barcha jarayoni adolatlil va shaffof o'tkazildi. Bu xalqaro olimpiada nufuzini yanada oshirishi bilan birga, yoshlarda o'ziga ishonchni ham yuksaltiradi. Nasib qilsa, keyingi yillardagi bellashuvlarda ham ishtirok etish niyatidaman.



Uch gillik intilishlarimiz mevasi

Akbarjon MUHAMMADJONOV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Romanovskiy nomidagi Matematika instituti tayanch doktoranti:

– Olimpiada jarayoni yoshlar uchun haqiqiy bilim maydoni, kuchli raqobat va irodani sinovdan o'tkazuvchi muhim bosqich hisoblanadi. Har doimgidek bu galgi olimpiadada ham shaffoflik va xalqaro standartlarga alohida e'tibor qaratildi.

Ustoz sifatida shogirdim Sirojiddin Ne'matov bilan faxrlanaman. U bilan 3 yildan beri shug'ullanib kelaman. Andijon shahridagi Prezident maktabida faoliyatimni boshlagan paytimda Sirojiddin 5-sinfga qabul qilindigani. Undagi iqtidorni ko'rib, qo'shimcha shug'ullanishni boshlaganman. 3 yildan beri “TasIMO” olimpiadasida

qatnashib kelamiz. Dastlabki yillarda omad yetishmadi. Ammo bundan tushkunlikka tushmadik, aksincha, yanada qattiqroq mehnat qildik, izlandik. Va nihoyat bu yil 1-o'rinni band qilib, oltin medalni olish nasib etdi. Uch yillik mehnatimizning ilk mevasini ko'rdik. Endi bu birinchi ikki bermaymiz!

Insonamanki, bugungi olimpiada g'oliblari ertangi kunda mamlakatimiz ilm-fani va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishadi.



Rahim SHERQULOV
“Xalq so'zi” tayyorladi.

2026/2027 o'quv yilidan bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida kadrlar tayyorlash maqsadida Soliq qo'mitasi huzurida Soliq oliy maktabi tashkil etiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullig'iga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Mushahid muharrir G'. Bahromov.
Navabhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.47 Topshirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6